

**QORAQALPOQ MAKTABLARIINING 5-6 SINF O'QUVCHILARIDA O'ZBEK VA  
INGILIZ TILLARIDA NUTQIY KOMPETENTSIYASINI INTEGRATSION O'QITISH  
MEXANIZMI.**

**Abdurazakova Shaydagul Salimatdinovna**

Nukus Davlat Pedagogika Instituti doktaranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11909749>

*Annotatsiya. Bu maqolada Qoraqalpoq maktablariining 5-6 sinf o'quvchilarida o'zbek va ingiliz tillarida nutqiy kompetentsiyasini integratsion o'qitish mexanizmi, uzliksiz ta'lif amaliyiotida nutqiy kompetentsiyasini til o'rghanishini takomillashtirish asosida integratsion metodik foydalanish haqida soz etilgan.*

**Kalit sózlar:** integrativ ta'lif, nutqiy kompetentsiya, Pedagogik ta'linda, metodika.

**THE MECHANISM OF INTEGRATED TEACHING OF SPEECH COMPETENCE IN  
UZBEK AND ENGLISH FOR 5-6 GRADERS OF KARAKALPAK SCHOOLS.**

*Abstract. This article describes the mechanism of integrated teaching of speech competence in Uzbek and English in 5th-6th grade students of Karakalpak schools, the use of integrated methodology based on the improvement of speech competence and language learning in the practice of continuous education.*

**Key words:** integrative education, speech competence, in Pedagogical education, methodology.

**МЕХАНИЗМ ИНТЕГРИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ  
НА УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ 5-6 КЛАССОВ  
КАРАКАЛПАКСКИХ ШКОЛ.**

*Аннотация. В данной статье описан механизм интегрированного обучения речевой компетентности на Узбекском и английском языках у учащихся 5-6 классов Каракалпакских школ, использование интегрированной методики, основанной на совершенствовании речевой компетентности и изучении языка в практике непрерывного образования.*

**Ключевые слова:** интегративное образование, речевая компетентность, педагогическое образование, методика.

Dunyoda integrativ ta'lif (Blended Learning), integratsion metodik yondashuv asosida talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirish masalasiga doir ilmiy munozaralar va forumlarni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, talabalarining nutqiy

kompetentsiyasi Pedagogik ta’limda til o’rganishni kommunikativ modelini takomillashtirish, talabalarda interfaol muloqot ko’nikmasini rivojlantirish jarayonida akmeologik va integratsion yondashuvning o’ziga xosliklarini aniqlashtirish, kommunikativ hamkorlikni tashkil etishning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish hamda samarali foydalanish, Uzliksiz ta’limda Qoraqalpoq maktablariining 5-6 sinf o’quvchilarida bilish darajasini sifat jihatidan metodik takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o’quvchilarning nutqiy kompetentsiyasini integratsion metodik rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish, integrativ-fasilitatsion ta’lim muhitini yaratish orqali kasbiy faoliyatga kommunikativ yo‘nalganlikni tarkib toptirish modelini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Uzliksiz ta’lim amaliyotida nutqiy kompetentsiyasini til o’rganishini takomillashtirish asosida integratsion metodik foydalanish, integrativ ta’lim muhitini yaratishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga talabalarining nutqiy kompetentsiyasini integratsion takomillashtirishning lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik komponentlarini uzliksiz ta’lim mazmuniga keng tatbiq etish, talabarni samarali muloqotga tayyorlash tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda til o’qitish metodikasi keyingi yillarda bir qator yutuqlarni qo’lga kiritmoqda.

Buning natijasida jamiyatning ijtimoy-iqtisodiy sohalarida muayyan rivojlanishlar, islohotlar sodir bo‘lmoqda. Zero, Qoraqalpoq maktablariining 5-6 sinf o’quvchilarida nutqiy kompetentsiyasi muloqot vositasi sifatida barcha yo‘nalishlarning taraqqiyotiga ta’sir qiladi, shuning uchun ham uni o’qitish masalasi doimo dolzarb hisoblanadi. Bugun dunyo til o’qitish metodikasiga andoza bo‘layotgan Ingiliz tili ta’limi yutuqlaridan aksariyat mamlakatlar samarali foydalanib kelmoqda.

Kuzatishlardan ma’lum bo‘lishicha, Qoraqalpoq maktablariining 5-6 sinf o’quvchilarida til o’qitish metodikasida integratsion nutqiy ko’nikmalarni rivojlantirish asosiy masalalardan bo‘lib, uni amalga takomillashtirish, talabalarining nutqiy kompetentsiyasiga ko‘proq bog‘liq bo‘lmoqda. Dunyoda ingiliz, fransuz, nemis va boshqa rivojlangan xorijiy tillarni o’qitishga doir ilmiy adabiyotlarda 5-6 sinf o’quvchilarda nutqiy kompetentsiyasini mazmuniga, foydalanganlik darajasiga alohida e’tibor beriladi va uzliksiz ta’lim jarayonidan unumli foydalaniladi. O‘zbek va ingiliz tillarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini rivojlantirish asosida malaka sertifikatiga ega bo‘lgan talabalar va pedagoglarga imtiyozlar berish hamda ularni rag‘batlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori qabul qilindi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori Toshkent sh., 2012-yil 10-dekabr, PQ-1875-son(“Xalq so‘zi” gazetasi, 11.12.2012-y., 240 (5660)-son; O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. Aripov. Toshkent sh., 2017-yil 11-avgust, 610-son

Qoraqalpoq maktablariining 5-6 sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirish o‘zaro muloqotning integratsion metodik o‘qitish asosida samarali bo‘lishiga qaratiladi. Amalda foydalaniladigan o‘quvchilarning nutqiy kompetentsiyasini avvaldan belgilangan ma’lum mezonlar asosida takomillashtiriladi. O‘zbekistonda ham o‘zbek va ingiliz tillarni o‘qitishda talabalarining nutqiy kompetentsiyasini integratsion metodikasi didaktik yondashuvga asoslanmoqda, dars mashg‘uloti jarayonida lingivistik kompetensiyalarni rivojlantirish nutqiy kompetensiyalarning takomillashishiga olib kelish ko‘zda tutilmoxda.

Qoraqalpoq maktablariining 5-6 sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetentsiyasini tajribalar asosida til o‘rganishga qo‘yilgan aniq talablar orqali (tinglab tushunish), (gapishtirish), (o‘qish) va (yo‘zish) malakalari rivojlantiriladi. O‘zbek va ingiliz tillarni o‘qitishda mazkur metodika biroz ijodiyroq foydalanish maqsadga muvofiq, bizningcha. Qoraqalpoq maktablariining 5-6 sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetentsiyasini o‘zbek va ingiliz tilida matn yoki suhbatni tinglab tushunadi, o‘qiy oladi, gapira oladi va yoza oladi. Bunday vaziyatda o‘zbek va ingiliz tili o‘qitish metodikasining asosiy vazifasi Qoraqalpoq maktablariining 5-6 sinf o‘quvchilarida eshitganlarini *to‘g‘ri tushuna olish, adabiy tilda ravon va mantiqan izchil gapira olish, matnni o‘qib tushuna olish* hamda *to‘g‘ri va mazmunli yoza olish* ko‘nikmalarini rivojlantirish lozim. Bu mas’uliyatli vazifani, albatta, talabalarining nutqiy kompetentsiyasini integratsion takomillashtirilgan o‘quv topshiriqlari orqali amalga oshirish mumkin. Shu ma’noda Uzliksiz ta’limda o‘zbek va ingiliz tilidan Qoraqalpoq maktablariining 5-6 sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishning yangi metodikalarini ishlab chiqish, lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish masalasi nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Qoraqalpoq maktablariining 5-6 sinf o‘quvchilarida qobiliyati va malakalarini rivojlantirish, kasbiy faoliyatga taktik va strategik yo‘nalganlikni tarbiyalash, o‘quvchilarni uzliksiz ta’lim faolligini takomillashtirishga ustuvor yo‘nalish sifatida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, ta’lim amaliyoti Qoraqalpoq maktablariining 5-6 sinf o‘quvchilarida nutqiy kompietensiyanı rivojlantiruvchi integratsion yondashuv asosida takomillashtirish, kommunikativ kompetentlilikni takomillashtirishni omillari va mezonlarini aniqlashtirish, konseptual modeli va amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Davlat ta’lim standartlari va milliy baholash mezonlariga muvofiq tarzada o‘zbek va ingiliz tilini o‘qitishda savol, mashq va topshiriqlar mazmunini integratsion tanqidiy o‘rganish,

---

(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 32-son, 820-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.05.2019-y., 09/19/395/3115-son)

ularni nutqiy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish va baholash nuqtai nazaridan tavsiflash va tasniflash zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, Farmoni mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalgalashuvda takomillashtirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi. Ma'lumki, o'zbek va ingiliz tillari ta'limida o'quv topshiriqlarini lingvopedagogik asoslarini integratsion metodik rivojlantirish, o'zbek va ingiliz tillarida o'qitish, o'quv jarayoniga tegishli barcha turdag'i o'quv qo'llanma, darslik, ko'rgazmali qurollardan tortib multimedia AKT vosita, materiallari asosida o'quv topshiriqlarini Qoraqalpoq maktablariining 5-6 sinf o'quvchilariga mos, innovatsion tizimli va o'rghanishga qulay samarali usullarini ishlab chiqarish bugungi kunning dolzarb masala sifatida e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Uzliksiz ta'lim tizimida o'zbek va ingiliz tillarini metodik integratsion o'qitish, o'quv materiallari asosida o'quv topshiriqlarini rivojlantirish, samarali ta'lim berish maqsadida Qoraqalpoq maktablariining 5-6 sinf o'quvchilarida o'zbek va ingiliz tillarida o'qitish sifatini samarali ta'minlash, o'zbek va ingiliz tillarida erkin so'zlasha oladigan o'quvchilarni ijdiy faoliyatga tayorlash muhim ahamiyatga ega.

Jahonda jamiyatning ijtimoiy buyurtmasidan kelib chiqib, ingiliz tillarni o'qitilishi nutqiy kompetentsiyalar, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablar hamda til materialidan iborat ingiliz tili o'qitish mazmunini takomillashtirish, innovatsion pedagogik, kompetentsiyalarni qo'llash metodikasini takomillashtirish, ayniqsa Qoraqalpoq maktablariining 5-6 sinf o'quvchilarida o'zbek va ingiliz tillarni o'qitishda til o'rghanishga ishtiyoqi, layoqati va munosabati kabi individual jihatlarini, tafakkur, xotira, diqqat kabi yoshga oid psixologik xususiyatlarini, til tajribasi va til ta'lim sharoitini inobatga olib sifat va samaradorlikni takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, so'nggi yillarda ta'lim-tarbiya tizimida yangi avlod tarbiyasida jahon fani va kompetentsiyasining ilg'or yutuqlarini jamlagan, o'tmish ajodolarimiz aql-zakovati mahsuli sifatida yaratilgan, milliy va ma`naviy qadriyatlarimizga tayangan holda zamonaviy ta'lim-tarbiya berish uslublarini takomillashtirish muammosi vujudga keldi. Barkamol avlod jamiyat taraqqiyotining asosi sanalishi bejiz emas. Shu bois mamlakatimizda ham jismonan, ham ma'nан barkamol avlodga ta'lim-tarbiya berish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. "Ta'lim to'g'risida"gi yangi Qonun (2020 yil 23-sentabr)da barkamol shaxs tarbiysi davlat ahamiyatiga molik muhim masala, ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Bu ta'limiy maqsadga erishishning samarali vositalaridan biri "o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni va

kompetentsiyalarni uzliksiz ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish"dan iborat. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: "Ta'limga e'tibor-kelajakka e'tibor", - deb ta'kidlashlari uzliksiz ta'limdagi islohot kelajak avlodga bo'lgan islohotdir. "Ta'lim to'g'risida"gi yangi Qonun, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonun hamda "Uzliksiz ta'limini rivojlantirish mazmunini tubdan isloh etish va ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat darajasiga ko'tarish Davlat dasturi", 2017-2021yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida va boshqa me'yoriy hujjatlarda uzliksiz ta'lim tizimini isloh qilish vazifalari belgilangan bo'lib, bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan ishslash, ularni kasbiy barkamol shaxs sifatida rivojllantirish davlat miqyosida muvaffaqiyatli amalga oshirilishida zamin bo`lmoqda. Zero, mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inxilar faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" degan fikri muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur masalaning dolzarbliqi Qoraqalpoq maktablariining 5-6 sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlashlari, ularning bilim egallashdagi faolliklarida yaqqol namoyon bo'ladi. Qoraqalpoq maktablariining 5-6 sinf o'quvchilarida tillarni o'rganish, uzlisiz ta'lim jarayoni o'qitishda foydalani layotgan usul, uslub va shakllarining turli- tumanligi bilan ajralib turadi. Uzliksiz ta'lim amaliyotida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasıdır. Ushbu aloqadorlik talabalarning bilimlarni ongli o'zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy va ilmiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda muhim o'rinni egallaydi. Bunday tayyorgarlik Pedagogikotda darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ishlab chiqarishda va har qanday ta'limiy faoliyatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini erkin qo'llash imkoniyatini beradi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda uzliksiz ta'lim tizimida maktab o'quvchilarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishda o'zbek tili o'qitish metodikasiga doir ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, Sh.Yusupova va N.Dadajonova kabi tilshunoslar o'z tadqiqotlarida o'zbek tili ta'limi jarayonida talabalarning nutqi ustida ishslash metodikasi asosida o'qitishni targ'ib qilgan. A.G'ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavuddinova, V.Karimjonova kabi tilshunos olimlar esa ona tili o'qitish asosida mustaqil o'quv topshiriqlarini ishslash, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borgan. T.Yusupova gapning bosh bo'laklarini o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Ona tili ta'lim mazmunida metodik va nazariy ta'limi bo'yicha tadqiqotchi olimlar H.Ne'matov, A.G'ulomov, M.Qodirov, A.Nurmonov, A.Sobirov, B.Mengliev,

L.R.Raupova , B.To‘xliev, Yusupova Sh, Ziyodova T, Oxunjonova O, D.Jumashev kabi tilshunos olimlarning ishlari shular jumlasidandir. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotlarning yozma va og‘zaki nutqini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. O.Roziqov, N.Mahmudov, R.Safarova, U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullaev, H.Alavuddinova , R.R.Sayfullaeva, B.R.Mengliev, L.L.Raupova kabi tilshunos olimlar ham shular jumlasidandir. Tadqiqotchi A.Bobomurodova ona tili ta’lim mazmunida o‘yin-mustaql o’quv topshiriqlardan foydalanish, metodist T.Ziyadova ona tili ta’limi jarayonida talabalarning so‘z boyligini oshirish imkoniyatlarini tadqiq etgan va ona tili ta’lim mazmunida matn tahliliga murojat qilgan. Jumladan, metodikaga doir T.T.G‘aniev ona tilidan mashq bajarish jarayonida talabaning bilish faolligini oshirish masalalarini tadqiq qilgan.

A.Hamraev ona tili ta’lim mazmunida ta’lim oluvchining ijodiy faUzliksiz atini loyihalashtirish muammosini tadqiq qilish asosida, ijodiy faUzliksiz atni loyihalashtirishda ona tili ta’limida uzbeklik, uzlusizlik, onglilik, o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlikni ta’minalash tamoyillari asosida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini tizimli tarzda rivojlantirish ilmiy-metodik jihatdan asoslangan. Bu borada metodist K.Mavlonovaning “Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn asosida integratsiyalab o‘qitish metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi tadqiqot ishini alohida ta’kidlash lozim. Olim tomonidan ona tili ta’lim mazmunining bugungi yondashuvlariga mos ravishda eng murakkab bo‘lib turgan matn ustida ishlash, uni o‘qiy olish, tushuna olish va eng muhimi, matn yarata olish ko‘nikmalarini adabiyot fani bilan integratsiya qilgan holda rivojlantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan. Shuningdek, tadqiqot mavzusiga doir izlanishlar I.A.Allayorov, O.R.Roziqov, R.Ibragimov M.H.Mahmudov, A.G‘ulomov, M.Qodirov, B.R.Adizov M.Mirtojievlar kabi tilshunos, metodist-pedagoglar tomonidan ta’lim oluvchining o‘quv-biluv faUzliksiz atini rivojlantirish, uning faolligi va mustaqilligini tarbiyalash muammolari ham o‘rganilgan. Ingiliz tillarni o‘qitishda mustaql o‘quv topshiriqlarini tizimlashtirishning lingvopedagogik jihatdan tadqiqini va o‘quv jarayonini fanlararo bog‘liqligini<sup>2</sup> A.M. Mamadaliev, Q.Q. Qiyyasova, didaktika va o‘qitish metodikasida bilimlar mazmuni bilan ilmiy bilish metodlarining mutanosibligiga asoslangan yaxlit tizim sifatida tushunilishini M.N.Skatkin, I.D.Zverev, I.YA.Lerner metodik asoslagan va tadqiqot olib borganlar. Tadqiqotchilardan I.V.Raxmanov,V.S. T Setlin, J.J. Jalolov<sup>3</sup>, T.Q. Sattorov, S.S.Saydaliev ingiliz tilining didaktik, pedagogik, amaliy (funksiyaviy), ta’limiy-tarbiyaviy asoslaridan kelib chiqib fikrlar bayon etishgan. Bir guruh metodist-olimlar A.A.Mirolyubov, I.V.Raxmanov V.S.Setlin o‘quv predmetlarini tasniflashda ularning didaktik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashganlar.

<sup>2</sup> Abdullayev Y. Eski maktabda xat-savod o‘rgatish. – Toshkent: O‘rta va Oliy maktab, 1960. – 150 b.

<sup>3</sup> Jalolov J. Ingliz tili o‘qitish metodikasi.Toshkent “O‘qituychi”1998

Ta'kidlash joizki, talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishda ingiliz tili o'qitish metodikasiga turli davrlarda filolog olimlar ham dastur, darslik mualliflari sifatida o'zlarining munosib hissasilarini qo'shdilar. Mamlakatimizda ingiliz tilni o'qitish masalalari G.X.Bakieva, L.T.Axmedova, J.J.Jalolov, T.K.Sattarov, D.U.Xoshimova kabi tadqiqotchilarning ishlarida yoritilgan kabilar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib brogan.

Ingliz tilini o'qitish metodikasi bo'yicha F.M.Rashidova, F.Sh.Alimov, B.G.Kulmatov, I.M.Tuxtasinov, M.X.Gulyamova kabilar ingiliz tili ta'limi maqsadi va mazmunini ishlab chiqqan professor G.X.Bakieva, g'oyalariga tayanib, ingiliz tili o'qitishda yangi – ortiqcha grammatizmdan voz kechib, talabalarda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish, lug'at va matn asosida ingiliz tilni, o'quvchi tafakkuriga singdirish, o'quvchini turli nutq vaziyatlariga tayyorlash, ijodiy tafakkur sohiblarini tarbiyalash yo'nalishni boshlab berdi.

MDH mamlakalarida ingliz tilini o'qitish bo'yicha tadqiqotlar N.V.Barlyshnikov, V.V.Bezrukova, M.Z.Biboletova, N.N.Trubaneva, I.L.Bim, T.P.Bludova, N.D.Galskova, N.I.Gezi, G.M.Frolova, G.A.Gromova, T.A.Davidova, Z.R.Devterova, N.V.Eluxina, T.A.Zayseva, G.V.Zaxarova, I.A.

Qoraqlpoq maktablariining 5-6 sinf o'quvchilarida nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishda o'zbek va ingliz tilini o'qitishda nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirish integratsion yondashuv zarurati tadqiqotimiz mavzusini belgilab berdi. O'zbek va ingliz tilni matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasi, talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishda, o'zbek va ingliz tili ta'limining bugungi integratsion yondashuvlarga mos ravishda eng murakkab bo'lib turgan matn tahlili ustida ishslash, uni o'qiy olish, tushuna olish va eng muhimi, matn yarata olish ko'nikmalarini integratsiya qilgan holda metodik texnologiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb bildik.

Rus pedagoglari A.N.Leontev, J. A. Ponomarev, S.L.Rubenshteyn<sup>4</sup> kabilar o'quv topshiriqlari va ularning didaktikada tutgan o'rni, vazifalari haqida kuzatishlar olib borgan.

Jumladan, Leontiev "nutqiy kompetentsiya" tushunchasini quyidagicha tavsiflaydi: "Nutq– muayyan shartlarga asoslanib, kasbiy salohiyatini nomoyon etuvchi omil, oldinga qo'yilgan maqsaddir"<sup>5</sup>.

<sup>4</sup> Рубенштейн С.Л. Проблемы общей психологии. – М.: Педагогика, 1976. -416 с. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – М.: Педагогика, 1972. -576 с. Пономарев Я.А. Психология творчества и педагогика, 1976. -280 с. Розиков О.Р. Теоретические основы оптимального применения системы учебных задач в обучении школьники (на материалах гуманитарных предметов). Автореферат дис...док. пед. наук. – Тбилиси, – 1986. -50 с. Розиков О.Р. ва бошкалар. Дидактика. – Т.: Фан, 1997. -256 б. Краткий педагогический словарь. – М.: 1984

<sup>5</sup> Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – М.: Педагогика, 1972. -576 с.

Jahon pedagogikasida talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishda metodik, psixologik-pedagogik tadqiqi bilan Avstraliyalik olim, professor Jak Richards maxsus shug‘illangan<sup>6</sup>. Shuni ta’kidlash joizki, g‘arb pedagogikasi amaliylikka asosiy e’tiborni qaratadi.

Dastlabki pragmatik g‘oyalar amerikalik faylasuf va pedagog D. Dyui<sup>7</sup> tomonidan ishlab chiqilgan. Ingiliz tajribalardan o‘z vaqtida xulosa chiqargan F.Sh.Alimov, B.G.Kulmatov, kognitiv-pragmatik yondashuvni O‘zbekiston ta’lim tizimiga birinchi bo‘lib istiqlolning dastlabki yillarda olib kirgan edi. Mazkur yondashuv o‘z vaqtida qo’llab-quvvatlanmadı. Shuning uchun hanuzgacha o‘zbek va ingiliz tili ta’limida amaldagi talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishda kutilgan samarani bermay kelmoqda. Bugungi pedagogik, lingvodidaktik sharoit o‘quv topshiriqlarini integratsion yondashuv asosida takomillashtirishni taqozo qiladi, shuningdek, talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishda B.Bluum taksanomiyasini ham inobatga olish lozim, ingiliz tili o‘qitish orqali mustaqil ishslash, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borgan. Shuningdek, Qoraqalpoq maktablariining 5-6 sinf o‘quvchilarida o‘zbek va ingiliz tilidan til sathlarini o‘qitish metodikasi bo‘yicha ham bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur maqola mazmunidan bugungi kunda o‘zbek va ingiliz tili ta’limida keng foydalanish mumkin.

Shu ma’noda, mazkur ish o‘zbek va ingiliz tilni o‘qitish, Pedagogik ta’lim amaliyotiga tatbiq etishda talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishning pedagogik, psixologik va lingvometodik zaruratlarini asoslash, integratsion yondashuv asosida tavsiflash hamda ularni vazifasi nuqtai nazardan tasniflash, uzliksiz ta’lim amaliyotga tatbiq qilish vazifalarini bajaradi.

Uzliksiz ta’lim tizimida Qoraqalpoq maktablariining 5-6 sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishning bugungi ahvolini o‘rganish va pragmatik mazmundagi o‘zbek va ingiliz tili ta’limidagi o‘rnini integratsion belgilash; darsliklardagi o‘quv materiallarining DTS hamda dastur talablariga mosligini qiyosiy o‘rganish va tahlilga tortish, shuningdek, ularni metodik o‘qitish bilan bog‘liq muammolarning sabablarini integratsiya asosida aniqlash va yechimlar taklif qilish; talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirish orqali talabalarda tinglab tushunish, gapirish, o‘qib tushunish va yozish (savodli va mazmunli matn tuzish) ko‘nikmalarini integratsiya asosida rivojlantirish metodlarini ishlab chiqish; fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning mazmun, usul, vositalarini ishlab chiqishni integratsion

<sup>6</sup> <https://www.professorjackrichards.com/mother-tongue-teaching-vs-foreign-language-teaching/>

<sup>7</sup> Джон Дьюи. Общество и его проблемы John Dewey. The Public and its Problems. Denver, 1927. / Дж. Дьюи. Общество и его проблемы. — Перевод с английского: И. И. Мюрберг, А. Б. Толстов, Е. Н. Косилова. — М., 2002.

takomillashtirish; Uzliksiz ta’limda talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishning qulay va amaliy ahamiyatga ega metod, usul va texnologiyalarni tanlash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa sifatida uzliksiz ta’lim tizimining o‘zbek va ingiliz tili uchun maxsus talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishning tizimli “O‘zbek tili” va “Ingiliz tili” darsliklari mazmunida amaliyatga joriy etiladi. Uzliksiz ta’limda o‘zbek va ingiliz tilni o‘qitish orqali talabalarda o‘zbek va ingiliz adabiy til, adabiy talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirish, terminalogik hamda imloviy savodxonlik, so‘z boyligini takomillashtirish va mustaqil ishlay olish kabi nutqiy ko‘nikmalarni kompleks takomillashtirish, talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishning integratsion mexanizmini ishlab chiqilib amaliyatga joriy qilinadi. Qoraqalpoq maktablariining 5-6 sinf o‘quvchilarida o‘zbek va ingiliz tilida nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishga doir ko‘nikma va malakalari rivojlantirilgan, dars mashg’uloti jarayoniga pragmatik yondashuvga asoslangan nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirish metodikasi joriy qilinadi. Ushbu ilmiy maqola o‘zbek va ingiliz ta’limoi, pedagogika va ta’lim tarixini o‘rganishda, o‘zbek va ingiliz tili o‘qitish metodikasini takomillashtirishda, o‘zbek va ingiliz tili fonetikasining ta’limda tutgan o‘rnini belgilashda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mazkur maqolada aks etgan nazariy qarashlar uzliksiz ta’limdagi yangi tadqiqotlar uchun manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

## REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. // Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T: 1997. 20-29 b.
2. Axmedova M.E. //“Modul-kredit tizimida mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari”// Monografiya //“Pedagogikot nashriyoti matbaa uyi” MCHJ Toshkent-2022, 136 bet.
3. Axmedova M.E. //“Mustaqil topshiriqlar bilan ishlash va ularni baholash metodikasi” Metodik qo‘llanma //“Tibhbiyot nashriyoti matbaa uyi” Toshkent-2022, 100 bet.
4. Axmedova M.E. //“PEDAGOGIKA” dasrlik //”Pedagogikot nashriyoti matbaa uyi” MCHJ Toshkent-2022, 212 bet.
5. Abdullayev Y. “Eski matabda xat-savod o‘rgatish” – Toshkent: O‘rtta va Oliy mifik, 1960. – 150 b.
6. Jalolov J. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. Toshkent “O’qituvchi” 1998.

7. Axmedova M.E. Talabalarda mustaqil ta'lif ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik xususiyatlari // O'zbekiston til va madaniyat. Metodika jurnali.T. – Тошкент, 2022. - №1(4). -Б. 70-81.
8. Axmedova M.E. Kredit tizimida mustaqil topshiriqlar // TIL VA ADABIYOT TA'LIMI jurnali. -Тошкент, 2022. №6. - Б 18-20. (13.00.00; №8).
9. Akhmedova M.E. Foreign experience in the transition to a credit-module system // Principles of development of linguistic-speech competence of students in independent education // Current Research Journal of Philological Sciences (2767-3758). №3(01). - P. 46–57 (13.00.00; №23). Journal Impact Factor 6,925
10. Akhmedova M.E. Research and application of textbooks in tutorials and manuals of higher education // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. - Хиндистон, 2022. – P. 165- 172. Vol. 12, Issue 01. (13.00.00; №20). (13.00.00; №23). Journal Impact Factor 8,037
11. Akhmedova M.E Improvement of didactic, pragmatic methods of independent study tasks in philological education in the credit-module system // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. - Хиндистон, 2022. – P. 86-90 Vol. 12, Issue 02. (13.00.00; №23). Journal Impact Factor 8,625
12. Akhmedova M.E Improvement of pedagogical - pragmatic processes of independent study // Tasks in philological higher education European journal of Humanities & Educational Advancements pages Vol. 3 No. 04, April 2022, Spain, - P. 279-281. (13.00.00; №23). Journal Impact Factor 7,223
13. Axmedova M.E. Features of module-credit, methods of question use and competence in creation of independent educational tasks / New York 2022. 28 iyun. Pages 217-221. Conference.